



**OZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIKNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
STOMATOLOGIYA INSTITUTI**



**“YOSH OLIMLAR KUNI”
Respublika ilmiy-amaliy anjumani
TEZISLAR TO'PLAMI**

**COLLECTION OF ABSTRACTS
“YOUNG SCIENTISTS DAY”
Republic scientific and practical conference**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ
Республиканской научно-практической конференции
“ДЕНЬ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ”**

Toshkent 25 aprel 2024 y.

УДК: 61
ББК: 20
С 56

Mas'ul muharrir: prof. Shomurodov Q.E., dots.Nigmatova I.M.

Tahririyat jamoasi: t.f.d, prof. Baymakov S.R., t.f.n., dots. Yarmuxamedov B.X., Yunusov R.A., t.f.d, dots. Abdullayev D.Sh., t.f.d, prof. Yakubov R.K., t.f.d, prof. Nigmatov R.N., t.f.n., dots. Azizov B.S, t.f.d, dots. Shukurova U.A., t.f.n., t.f.n., dots. Qurbonova S.Yu., t.f.n., dots. Akramova L.Yu.

Umumiy tahririyat ostida t.f.d, prof. Haydarov N.K.

Texnik muharrir: Taxirova K.A., Kadirbayeva A.A.

Ushbu to'plam 2024-yil 25-aprel kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan “YOSH OLIMLAR KUNI” Respublika ilmiy-amaliy anjumani yakunlari bo'yicha tuzilgan. Nashrlar anjuman rejasiga muvofiq taqdim etilgan. Anjumanda ma'ruza qilingan materiallar, stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish, fundamental va klinik fanlar muammolariga oid tezislar chop etildi. Ushbu to'plam talabalar, maistrilar, tayanch doktorantlar, doktorantlarva klinik ordinatorlar, shuningdek, amaliyotchi shifokorlar uchun tavsiya etiladi.

Maqolalar muallif nashrida taqdim etilgan. Nashr etilgan materiallar mualliflari kotirovkalar, nomlar, nomlar va boshqa ma'lumotlarning haqiqiyiligi va to'g'riligi, shuningdek, intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun javobgardir. Qurultoy to'plami materiallarini qayta nashr qilishda tezislar to'plamiga havola kerak bo'ladi.

Настоящий сборник составлен по итогам Республиканской научно-практической конференции “ДЕНЬ МОЛОДЫХ УЧЕННЫХ” состоявшееся 25 апреля 2024 года в городе Ташкенте. Публикации представлены в соответствии с планом проведения конференции. Опубликованы материалы, доложенные на конференции, а также тезисы по проблемам стоматологии и челюстно-лицевой хирургии, организации здравоохранения, фундаментальным и клиническим наукам.

Данный сборник рекомендуются для студентов, студентов магистратуры и клинических ординаторов, а также для практикующих врачей. Статьи представлены в авторской редакции. Ответственность за аутентичность и точность цитат, имен, названий и иных сведений, а также за соблюдение законооб интеллектуальной собственности несут авторы публикуемых материалов. При перепечатке материалов сборника конгресса ссылка на сборник тезисов обязательна.



***Hurmatli anjuman
ishtirokchilari, yosh olimlar va
mehmonlar!***

Toshkent davlat stomatologiya institutida an’anaviy tarzda o’tkazilib kelinayotgan “YOSH OLIMLAR KUNI”ga bag’ishlangan ilmiy- amaliy anjumanga xush kelibsiz!

Institutimiz rahbariyati va ahil jamoasi mamlakatimizda sodir bo’layotgan keng ko’lamli islohatlar va o’zgarishlardan ilxomlangan holda

o’zining faoliyatini jadal olib bormoqda.

Yurtboshimiz tomonidan oliy ta’lim muassasalarining faoliyatiga mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining asosi sifatida qaralib, institut jamoasi zimmasiga ulkan mas’uliyatlarni yuklaydi. Va albatta ushbu vazifalarni bajarishda yosh olimlarimiz, ilmiy izlanuvchilarning qo’shayotgan hissalarini kattadir.

Bugungi kunda Institutimizda professor o’qituvchilari tarkibi yosh, ilmga chanqoq, faol yoshlar xisobiga kengayishi bilan bir qatorda, talabalarimiz soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Sog’liqni saqlash tizimiga malakali kadrlarni yetkazib berish mas’uliyati xodimlarimizni o’z ustida ishlash va malakasini doimiy oshirib borishga intilishida namoyon bo’lmoqda.

Bugungi anjumanni o’tkazishdagi asosiy maqsadimiz yosh avlod orasida ilmiy-izlanuvchilik potentsialini rivojlantirish, iqtidorli talabalarni o’z sohalarida yetuk mutaxassis sifatida shakllanishlarida qo’llab – quvvatlashdan iboratdir.

Ishonamanki, bugungi anjuman ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalarini o’rtasida integratsiyani kuchaytiradi hamda mamlakatimizda zamonaviy tibbiyotni rivojlanishidagi ilmiy-amaliy vazifalarni hal qilishda yosh olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy salohiyatini jalb qilinishiga turtki bo’ladi.

Hurmatli yosh olimlarimiz, mazkur konferentsiya ishida sizlarga muvaffaqiyat tilagan holda, yurtimizdagi ijobiy o’zgarishlarning bir bo’lagi sifatida ishtirok etishingizga ishonaman va omad tilayman.

**Toshkent davlat stomatologiya
institutini rektori**

N.K.Xaydarov

слушателей. Участники «круглого стола» отмечают важность изучаемой проблемы. Кроме того, с каждой учебной группой проводится занятие по особенностям формирования зависимостей, этиопатогенезу, начальным симптомам и их негативным последствиям. При этом выделяются факторы, способствующие развитию алкоголизма, наркоманий и других зависимостей, а также меры профилактики и необходимость принятия экстренных мер даже при минимальных симптомах, свидетельствующих о формировании зависимости. Конечно, важную роль в психопрофилактике зависимостей играет и чтение лекций для студентов в рамках учебного плана «Алкоголизм, этиопатогенез, клиника, профилактика», «Наркомании, этиопато-генез, клиника, профилактика». Присутствие на лекции пациентов усиливает эффект воспитательного воздействия и обычно надолго запоминается. Ежегодно проводятся 1-2 занятия СНО по проблемам различных видов наркоманий и алкоголизма. Большой интерес у студентов вызывают заседания СНО, посвященные компьютерной и игровой зависимостям. Преподаватели кафедры вносят свой вклад в борьбу с зависимостями, осуществляя постоянная борьба с курением, пропагандируя здоровый образ жизни не только на занятиях, но и подавая личный пример. Таким образом, психопрофилактика зависимостей должна начинаться с раннего возраста усилиями родителей, педагогов, конечно, СМИ и обязательно должна продолжаться в условиях вуза и сопровождаться мероприятиями по формированию здорового образа жизни на протяжении всего периода обучения и в последующем. Только при таком подходе можно существенно изменить реальную ситуацию в Узбекистане и уменьшить распространенность зависимостей.

СУРУНКАЛИ БУЙРАК КАСАЛЛИГИНИНГ ЭРТА БОСҚИЧИДА БУЙРАК ДИСФУНКЦИЯСИ МАНЗАРАСИ

Йулдошев Турғун Равшанович

Илмий раҳбар: Собиров м.О.- тиббиёт фанлари доктори

*Сурхандарё вилояти Ангор тумани тиббиёт бирлашмаси, Термиз,
Ўзбекистон*

Сурункали буйрак касаллиги (СБК) янги асрга келиб ўлимга олиб келувчи касалликлар орасида бешинчи ўринни эгаллади. Шунинг учун биз СБК нинг консерватив босқичида беморларда буйрак дисфункцияси градиентларини босқичлари бўйича тарқалишини таҳлил қилдик.

Тадқиқот мақсади. Сурункали буйрак касаллигининг консервативбосқичида беморларда буйрак дисфункцияси градиентларининг манзараси кузатиш ва босқичлари бўйича тарқалишини статистик таҳлил қилиш.

Материал ва услублар. Тадқиқот учун Миллий тиббиёт маркази нефрология бўлимида даволанаётган турли генезли нефропатиялар натижасида ривожланган 31 нафар СБК беморлари олинди. Тадқиқотга олинган барча беморлардаги мочевина ва креатининҳамда креатинин қиймати бўйича ҳисобланган коптокчалар фильтрацияси тезлиги (хис.КФТ)градиентлари ўрганилиб АҚШ миллий буйрак фонди (NKF K/DOQI, 2002) тавсияси

асосида СБКнинг С2 ва С3А босқичларига ажратилиб чиқилди.

Натижалар ва уларни муҳокамаси. Барча 31 нафар СБК беморларида буйрак фаолияти кўрсаткичлари ўртача қийматда қон зардобидамочевина $12,9 \pm 0,52$; креатинин $157,2 \pm 12,37$ га кўтарилгани, ҳис.КФТ $54,7 \pm 0,59$ мл/мин. қийматга пасайгани кузатилди. Сўнгра АҚШ миллий буйрак фонди (NKF K/DOQI, 2002) тавсияси асосида СБК босқичларига ажратилганида 18 нафари (58,1 %) С2-босқич, 13 нафари (41,9 %) С3А-босқичда эканлиги аниқланди. С2-босқич (n-18) беморларда қон зардобидамочевина $9,3 \pm 0,43$; креатинин $108,6 \pm 10,6$ га кўтарилгани, ҳис.КФТ $79,2 \pm 0,47$ мл/мин. қийматга пасайгани аниқланди. С3А-босқич (n-13) беморларида эса қон зардобидамочевина $10,7 \pm 0,48$; креатинин $158,4 \pm 11,9$ га кўтарилгани, ҳис.КФТ $50,1 \pm 0,83$ мл/мин. қийматга пасайгани кузатилди.

Хулосалар:

1. Сурункали буйрак касаллиги эрта босқичларида буйрак дисфункцияси градиентлари ўзгаради, у қон зардобида мочевина ва креатинин миқдорини ошиб кетиши ҳамда ҳис.КФТ пасайиши билан намоён бўлади.
2. Сурункали буйрак касаллиги эрта босқичларида қон зардобида мочевина ва креатинин миқдорини меёрда ёки меёр чегарасида бўлган ҳолатида ҳис.КФТ пасайганлиги, яъни буйрак етишмовчилиги мавжудлиги мазкур градиентларнинг етарли эмаслигини билдиради.
3. Сурункали буйрак касаллигининг эрта босқичларида буйрак дисфункциясини ташхислаш учун янги биомаркерларни излаш лозим.

СУРУНКАЛИ БУЙРАК КАСАЛЛИГИНИНГ ЭРТА БОСҚИЧЛАРИДА БУЙРАК ИЧИ ГЕМОДИНАМИКАСИ ЎЗГАРИШЛАРИ

Йулдошев Турғун Равшанович

Илмий раҳбар: Собиров М.О. – тиббиёт фанлари доктори

*Сурхандарё вилояти Ангор тумани тиббиёт бирлашмаси, Термиз,
Ўзбекистон*

Сурункали буйрак касаллиги (СБК) янги асрга келиб ўлимга олиб келувчи касалликлар орасида бешинчи ўринни эгаллади. Шунинг учун биз СБК да буйрак ичи гемодинамикаси градиентларини баҳолашни лозим топдик.

Тадқиқот мақсади. Сурункали буйрак касаллигининг турли босқичларида беморларда буйрак ичи гемодинамикасини ўзгаришларини баҳолаш ва босқичлари бўйича таҳлил қилиш.

Материал ва услублар. Тадқиқот учун Миллий тиббиёт маркази нефрология бўлимида даволанаётган турли генезли нефропатиялар натижасида ривожланган 31 нафар сурункали буйрак касаллиги (СБК) беморлари олинди. Тадқиқотга олинган барча беморлардаги мочевина ва креатинин ҳамда креатинин қиймати кўмагида ҳисобланган коптокчалар фильтрацияси тезлиги градиентлари бўйича АҚШ миллий буйрак фонди (NKF K/DOQI, 2002) тавсияси асосида СБКнинг босқичлари бўйича С2 (n-18) ва С3А (n-13) гуруҳларга ажратилди. Барча беморларда буйрак артериялари доплерографияси текшируви ўтказилди. Унга кўра буйраклар асосий, сегментар, бўлақлараро артерияларида